DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-09-51 **Pages: 482-495**

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF THE CRIME OF EVADING CUSTOMS PAYMENTS

Anvar Kurbonov
Senior Lecturer at the
Department of Special Disciplines of the Customs Institute
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: customs, customs payments, customs duties, evasion of customs payments, evasion of taxes and fees, crime, criminal liability, comparative legal analysis, administrative prejudice, significant amount, large amount, especially large amount, compensation for damage.

Received: 21.09.26
Accepted: 22.09.26
Published: 23.09.26

Abstract: This article examines the legal nature and social significance of the crime of evading customs payments, as well as the criteria for distinguishing it from related administrative offenses and crimes. The criminal legislation of the Republic of Uzbekistan and selected foreign countries concerning liability for evading customs payments is analyzed from a comparative legal perspective. The study examines foreign approaches to treating evasion of customs payments as a separate criminal offense from tax and fee evasion, differentiating criminal liability according to the amount of unpaid payments, and establishing legal consequences for compensation of the damage caused. Based on the findings of the study, proposals are developed to improve Article 184 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, including the explicit inclusion of customs duties within the scope of the provision and the determination of the quantitative thresholds for criminal liability through specific basic calculation unit (BCU) amounts.

BOJXONA TO‘LOVLARINI TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLASH JINOYATINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Anvar Qurbonov
Bojxona instituti Maxsus fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: bojxona, bojxona to‘lovlari, bojxona boji, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, jinoyat, jinoiy javobgarlik, qiyosiy-huquqiy tahlil, ma’muriy preyuditsiya, ancha miqdor, ko‘p miqdor, juda ko‘p miqdor, zararni qoplash.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyatining huquqiy tabiati, ijtimoiy xavfliligi hamda uni turdosh huquqbuzarlik va jinoyatlardan farqlash mezonlari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasi va ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun belgilangan jinoiy javobgarlik choralari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar qonunchiligida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashning soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashdan alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanishi, shuningdek javobgarlikni to‘lanmagan to‘lovlar miqdoriga qarab differensiallashtirish va yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy oqibatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasini takomillashtirish, xususan, bojxona bojini mazkur modda doirasida bevosita nazarda tutish hamda jinoyat tarkibining miqdoriy chegaralarini aniq bazaviy hisoblash miqdori ko‘rsatkichlari orqali ifodalash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЯ УКЛОНЕНИЯ ОТ УПЛАТЫ ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ

Анвар Курбонов
Старший преподаватель кафедры Специальных дисциплин
Таможенного института
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: таможня, таможенные платежи, таможенная пошлина, уклонение от уплаты таможенных платежей, уклонение от уплаты налогов и сборов, преступление, уголовная ответственность, сравнительно-правовой анализ, административная преюдиция, значительный размер, крупный размер, особо крупный размер, возмещение ущерба.

Аннотация: В статье исследуются правовая природа и общественная опасность преступления, связанного с уклонением от уплаты таможенных платежей, а также критерии его разграничения со смежными административными правонарушениями и преступлениями. Проведен сравнительно-правовой анализ уголовного законодательства Республики Узбекистан и отдельных зарубежных государств в части установления ответственности за

уклонение от уплаты таможенных платежей. Исследованы зарубежные подходы к выделению уклонения от уплаты таможенных платежей в самостоятельный состав преступления, отдельный от уклонения от уплаты налогов и сборов, дифференциации уголовной ответственности в зависимости от размера неуплаченных платежей, а также правовых последствий возмещения причиненного ущерба. По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию статьи 184 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, в том числе по непосредственному включению таможенной пошлины в сферу действия данной нормы и определению количественных критериев уголовной ответственности посредством конкретных показателей базовой расчетной величины.

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlar bilan faol iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, xususan tashqi savdo-sotiq aylanmasini ko‘paytirish borasidagi ishlar jadal sur’atlarda amalga oshirib kelinmoqda. Tashqi savdo sohasidagi hamkorlikning ayniqsa tovarlar eksporti va importi kengayishida boj tarif choralarining ahamiyati juda muhimdir.

Mamlakatimiz oldida Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishdek muhim vazifa turgan bir paytda boj stavkalarini optimallashtirish asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tashqi savdoda boj stavkalarini to‘g‘ri va oqilona belgilash ishlab chiqarishing ortishiga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga, ichki bozorda narxlar barqarorligini, sog‘lom raqobatni ta’minlashga hamda iste’molchilarning talablarini qondirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bojxona ma’muriyatchiligini yangi darajaga ko‘tarish, bojxona operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish, sohani ochiqlik, shaffoflik hamda ishonchlilik tamoyillari asosida korrupsiyasiz tizimga aylantirish, bojxona to‘lovlari undiriluvchanligini oshirish bojxona organlarining bugungi kundagi asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmoni bilan xavf darajasi past bo‘lgan bojxona yuk deklaratsiyalarini bosqichma-bosqich inson omilisiz avtomatik ravishda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazish hajmi oshirilganligi, bojxona ko‘rigi jarayonlarini qamrab olgan mobil elektron tizim ishga tushirilganligi, bojxona xizmatlari to‘liq raqamlashtirilgan holda “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar

soni ortganligi, bojxona yuk deklaratsiyalarini “Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona postlarida rasmiylashtirish tartibi joriy qilinganligi shular jumlasidandir.

Bundan tashqari xavfni boshqarish tizimini samarali qo‘llash orqali bojxona rasmiylashtiruvi uchun ketadigan vaqt sarfini qisqartirish borasida ham faol ishlar olib borilmoqda. O‘z navbatida mazkur tizim qo‘shimcha bojxona to‘lovlarini undirishga ham xizmat qilmoqda.

Bojxona organlari faoliyatida yaratilayotgan axborot tizimlari va raqamli xizmatlar nafaqat bojxona organlarining, avvalo tashqi iqtisodiy faoliyat halol subyektlarining vaqtini hamda ortiqcha mablag‘larini tejashga yordam bermoqda.

Yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklarga qaramasdan noqonuniy daromad topish ilinjidagi ayrim nohalol tadbirkorlik subyektlari hamda shaxslar tomonidan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashga qaratilgan jinoyatlar hamon sodir qilinmoqda. Ushbu qonunbuzarliklarni sodir qilishda ayniqsa qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqlardan foydalanishga urinish holatlari ko‘p uchramoqda.

Muhokama va natijalar. Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyatining ijtimoiy xavfliligi, avvalo, davlat budjeti va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa jamg‘armalarga tushishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarining undirilmasligi yoki to‘liq undirilmasligi natijasida davlatning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazilishida namoyon bo‘ladi. Mazkur qilmishning ijtimoiy xavfliligi nafaqat yetkazilgan moddiy zararning mavjudligi, balki bojxona to‘lovlarini to‘lash majburiyatini qasddan bajarmaslik orqali bojxona va soliq tizimining belgilangan tartibiga tajovuz qilinishida ham ifodalanadi.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Jinoyat bu – har doim harakat yoki harakatsizlikda ifodalangan qilmish, muayyan shaxsning faoliyatidagi xatti-harakatdir. Jinoyat huquqi inson irodasining tashqi ko‘rinishi ya’ni faol harakatlari yoki harakatdan tiyilishida (harakatsizlik) ifodalanadigan jinoiy xatti-harakatlarni tadqiq qiladi. Jinoyat huquqi harakatsizlikni tartibga solmaydi, u muayyan harakatlarni belgilaydi yoki taqiqlaydi [1].

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashning huquqiy tabiatini aniqlashda, avvalo, “bojxona huquqbuzarligi” tushunchasiga murojaat qilish lozim. 1977-yil 9-iyunda Nayrobida imzolangan “Bojxona huquqbuzarliklarining oldini olish, tergov qilish va ularni bartaraf etishda o‘zaro ma’muriy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi xalqaro Konvensiyada bojxona huquqbuzarligi bojxona qonunchiligini buzadigan yoki bunday huquqbuzarlikni sodir etishga urinish bilan bog‘liq qilmish sifatida ifodalangan [2].

Mazkur ta’rif bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarning umumiy tushunchasini ifodalab, ularning faqat jinoyatlar bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Zero, bojxona qonunchiligini buzish turli huquqiy javobgarlik turlarini, jumladan, ma’muriy va jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarni tadqiq etishda ularni huquqiy oqibatlari, ijtimoiy xavflilik darajasi va sodir etilish usuliga ko‘ra farqlash muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha konvensiyada bojxona huquqbuzarligi tushunchasiga berilgan tarif umumiy va universal xarakterga ega. Unda umumiy holatda bojxona sohasiga oid ma’muriy, jinoiy, iqtisodiy, fuqaroviy huquqbuzarliklar mohiyati berilgan.

Shuningdek, Bojxona ittifoqining Bojxona kodeksida berilgan ta’rifga ko‘ra, “ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyat – a’zo davlatlarning qonunchiligiga muvofiq protsessual ish yuritilishi bojxona organlariga yuklatilgan ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat” deb ta’riflangan [3].

Rossiyalik mutaxassis A.Bukanevning fikriga ko‘ra Jinoyat kodeksida bojxona sohasidagi jinoyatlarning ikkita bloki farqlanadi:

1) Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 194-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan tashkilot yoki jismoniy shaxsdan undiriladigan bojxona to‘lovlarini, maxsus, dempingga qarshi va kompensatsiya to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik;

2) Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 200.1, 200.2, 226.1 va 229.1-moddalarida jinoiy javobgarlik belgilangan turli xil narsalarni kontrabanda qilish [4].

Yuqoridagi har ikkala holatda ham aynan bojxona nazorati jarayonida aniqlanishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklar bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklar (ma’muriy yoki jinoiy) sifatida keltirilgan. Biz avvalgi tadqiqotlarimiz davomida bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘lamidan kelib chiqib, undan ham kengroq bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelganmiz.

Mazkur tadqiqotimiz esa bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati haqida bo‘ladi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning tarkibi va ularni tasniflash masalalari xorijiy huquqshunos olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, A.A.Nikiforova tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar tushunchasiga oid konseptual yondashuvlarni to‘rt guruhga ajratadi. Birinchi guruh vakillari mazkur qilmishlarni tashqi iqtisodiy faoliyatga tajovuz sifatida baholasa, ikkinchi guruh ularni bojxona munosabatlari bilan bog‘laydi. Uchinchi guruh bojxona jinoyatlari va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoiy tajovuzlarni alohida kategoriyalar sifatida ko‘rsa, to‘rtinchi guruh bojxona jinoyatlarini tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning bir turi sifatida e’tirof etadi [5].

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, bojxona sohasidagi jinoyatlarni faqat bojxona chegarasi orqali tovarlarni noqonuniy olib o‘tish bilan cheklab bo‘lmaydi. Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash ham tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan va davlatning iqtisodiy manfaatlariga tajovuz qiluvchi mustaqil jinoiy qilmish sifatida qaralishi lozim.

Mazkur tadqiqotning asosiy predmeti aynan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyatining huquqiy tabiati, uni turdosh jinoyatlardan farqlash mezonlari hamda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishdan iborat.

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyatini to‘g‘ri baholash uchun, avvalo, bojxona to‘lovlarining tarkibi va huquqiy tabiatini aniqlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida bojxona to‘lovlarining asosiy turlari sifatida bojxona boji, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va bojxona yig‘imlari belgilangan. Qonunchilikda bojxona to‘lovlarining boshqa turlari ham nazarda tutilishi mumkin. Mazkur to‘lovlarning undirilishi tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos hisoblash va to‘lash tartibiga ega.

Bojxona bojlari, xususan, import, eksport, alohida (maxsus, antidemping va kompensatsiya) hamda mavsumiy bojxona bojlariga bo‘linadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i esa bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tegishli tovarlarga nisbatan soliq qonunchiligi hamda bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik asosida undiriladi. Bojxona yig‘imlari esa bojxona organlari tomonidan muayyan bojxona harakatlari va tartib-taomillari amalga oshirilganligi uchun undiriladigan majburiy to‘lov hisoblanadi.

Shu jihatdan bojxona to‘lovlari yagona iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan to‘lovlar majmui emas, balki turli huquqiy asoslar va hisoblash mexanizmlariga ega bo‘lgan majburiy to‘lovlar tizimidir. Mazkur holat ularni to‘lashdan bo‘yin tovlash qilmishlarini huquqiy kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona to‘lovlarining undirilishi davlatning fiskal manfaatlarini ta’minlash bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyatni tarif jihatdan tartibga solish vazifasini ham bajaradi. Shu sababli ularni to‘lashdan bo‘yin tovlash nafaqat davlat budjetiga moddiy zarar yetkazadi, balki tashqi savdo munosabatlarining qonunchilikda belgilangan tartibiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda uni bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda kontrabanda kabi turdosh jinoyatlardan farqlash alohida ahamiyatga ega.

Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash o‘rtasidagi asosiy farq qilmishning obyektiv tomonida namoyon bo‘ladi. Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzishda shaxs tomonidan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishning belgilangan tartibi buziladi. Bunda qilmish, jumladan, tovarlarni bojxona nazoratidan yashirish, bojxona nazoratini chetlab o‘tish, bojxona hujjatlari yoki boshqa vositalardan aldov yo‘li bilan foydalanish yoxud tovarlarni noto‘g‘ri deklaratsiyalash kabi usullarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Bunday hollarda shaxsning harakati faqat bojxona to‘lovlarini to‘lamaslikka emas, balki bojxona nazoratining belgilangan tartibini buzishga ham qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli qilmishni kvalifikatsiya qilishda shaxsning aynan qanday harakatni sodir etgani va uning jinoiy maqsadi aniqlanishi lozim.

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashda esa jinoiy qilmishning bevosita yo‘nalishi bojxona to‘lovlarini to‘lamaslik yoki belgilanganidan kam miqdorda to‘lashga qaratiladi. Bunda shaxs tovarning o‘zini va uning bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotganligini yashirmasligi ham mumkin, biroq bojxona to‘lovlari miqdoriga ta’sir qiluvchi ma’lumotlarni qasddan noto‘g‘ri ko‘rsatish orqali to‘lanishi lozim bo‘lgan summani kamaytiradi.

Masalan, bojxona organlariga taqdim etilgan hujjatlarda tovarning mavjudligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, uning qiymati, xususiyatlari, tashish shartlari yoki bojxona to‘lovlari miqdorini belgilashga ta’sir qiluvchi boshqa ma’lumotlar haqiqatga zid ravishda ko‘rsatilishi natijasida to‘lov summasi kamaytirilishi mumkin. Bunday vaziyatda qilmishning asosiy maqsadi tovarni bojxona nazoratidan yashirish emas, balki undan kelib chiqadigan bojxona to‘lovlarini to‘lamaslik yoki kamroq to‘lashdan iborat bo‘ladi.

Shu sababli bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashni farqlashda quyidagi mezonlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- qilmishning bevosita maqsadi;
- tovarning bojxona organlariga ma’lum yoki noma’lum bo‘lishi;
- bojxona nazoratining buzilgan yoki buzilmaganligi;
- to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovining miqdoriga ta’sir qiluvchi ma’lumotlarning buzib ko‘rsatilganligi;
- qilmishni sodir etish usuli;
- shaxsning qilmishga nisbatan qasdining yo‘nalishi.

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashni soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyatidan farqlashda esa, avvalo, tegishli majburiy to‘lovning huquqiy tabiatiga e’tibor qaratish lozim.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashda jinoiy qilmish, odatda, soliq solinadigan obyektni qasddan yashirish yoki kamaytirib ko‘rsatish yoxud qonunchilikda belgilangan soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash orqali amalga oshiriladi. Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashda esa to‘lov majburiyatining yuzaga kelishi, avvalo, tovarlarning bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur jinoyatlarni farqlashning asosiy mezoni to‘lovning nomi emas, balki uning yuzaga kelishining huquqiy asosi, to‘lov predmeti va to‘lov majburiyatining shakllanish mexanizmi hisoblanadi.

Kontrabanda jinoyatidan farqlashda esa jinoyat predmeti va qilmishning yo‘nalishi muhim ahamiyatga ega. Kontrabandada qonunchilikda jinoiy-huquqiy jihatdan alohida muhofaza qilinadigan muayyan predmetlarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tish asosiy belgi hisoblanadi. Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashda esa asosiy tajovuz davlatning bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq fiskal manfaatlariga qaratiladi.

Shunday qilib, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, kontrabanda va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash tashqi tomondan bir-biriga o‘xshash bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ularning huquqiy tabiati, jinoyat predmeti, obyektiv tomoni va jinoiy maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli ularni malakalash(kvalifikatsiya qilish)da faqat tovarning bojxona chegarasi orqali olib o‘tilganligining o‘zi yetarli emas, balki aniq qilmishning barcha obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlash talab etiladi.

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlikni belgilash masalasida xorijiy davlatlar qonunchiligi turlicha yondashuvlarni nazarda tutadi. Biroq o‘rganilgan davlatlarning aksariyatida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashdan alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilangan.

Bu yo‘nalishda ayrim xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligini qiyoslab ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash alohida jinoyat sifatida nazarda tutilgan. Xususan, 194-moddada tashkilotlar yoki jismoniy shaxslardan undiriladigan bojxona to‘lovlari, maxsus, antidemping va kompensatsiya to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shu bilan birga, soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta badallarini to‘lashdan bo‘yin tovlashga oid qilmishlar boshqa moddalarda alohida tartibga solingan [6].

Mazkur yondashuv bojxona to‘lovlari bilan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning huquqiy tabiatidagi farqlarni jinoyat-huquqiy jihatdan ham e’tirof etish imkonini beradi.

Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 231-moddasida bojxona organlari tomonidan undiriladigan to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash esa alohida jinoyat tarkibi sifatida tartibga solingan [7].

Moldova Respublikasi jinoyat qonunchiligida ham import to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashdan alohida jinoyat sifatida belgilangan. Mazkur davlat qonunchiligida import to‘lovlarining muayyan miqdorda to‘lanmasligi jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi shart sifatida belgilangan [8].

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 209-moddasida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash alohida jinoyat sifatida belgilangan. Mazkur jinoyat bo‘yicha javobgarlik to‘lanmagan bojxona to‘lovlari miqdoriga qarab differensiallashtirilgan. Soliqlar, ishsizlik sug‘urtasi, majburiy tibbiy sug‘urta va majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi badallarini to‘lashdan bo‘yin tovlash esa boshqa norma bilan tartibga solingan [9].

Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 236-moddasida bojxona bojlari, bojxona yig‘imlari, soliqlar, maxsus, antidemping va kompensatsiya bojlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur davlat qonunchiligida yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplashning jinoiy javobgarlikka ta’siri ham nazarda tutilgan [10].

Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona to‘lovlari, maxsus, antidemping, kompensatsiya va boshqa bojlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilangan. Soliqlar va budjetga boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash esa boshqa moddalar bilan tartibga solinadi. Mazkur davlat qonunchiligida to‘lanmagan to‘lovlar miqdoriga qarab javobgarlikni differensiallashtirish bilan bir qatorda, tegishli qarzdorlikning ixtiyoriy ravishda qoplanishiga ham huquqiy ahamiyat berilgan [11].

Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash 291-moddada, soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash esa alohida moddalar bilan tartibga solingan. Ushbu davlat qonunchiligining o‘ziga xos jihati shundaki, muayyan shartlar asosida to‘lanmagan bojxona to‘lovlari, soliqlar va yig‘imlarning foizlari hamda jarimalari to‘liq qoplangan taqdirda jinoiy javobgarlikdan yoki jazoning o‘talmay qolgan qismidan ozod qilish imkoniyati nazarda tutilgan [12].

Turkmaniston Respublikasi Jinoyat kodeksining 283-moddasida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun javobgarlik belgilangan. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash esa jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan alohida jinoyat tarkiblari orqali tartibga solingan [13].

1-jadval (muallif ishlanmasi)

Davlat	Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash va soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash alohida moddalarda (JK moddasi yoziladi)	To‘lanmagan to‘lovlar miqdori eng kamida qancha bo‘lsa jinoyat hisoblanadi (ancha, ko‘p, juda ko‘p miqdorda)	Bojxona to‘lovlari (soliq va yig‘imlar), penya (foizlar) qoplansa jinoiy javobgarlik qo‘llamaslik moddaning o‘zida belgilangan	Bojxona to‘lovlari (soliq va yig‘imlar), penya (foizlar) qoplansa ozodlikdan mahrum qilish jinoiy jazosi qo‘llamaslik moddaning o‘zida belgilangan	Belgilangan jinoiy jazo turlari			
					Jarima	Axloq tuzatish ishlari	Muayyan huquqdan (faoliyat bilan shug‘illanish) mahrum qilish	Ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki qamoq
UZB	184 (s.)	ancha**	+	+	+	+	-	+
RUS	194 (b.t.)	ko‘p	-	-	+	+		+
	198 (s.j.)	ko‘p	+*	-	+	+	-	+
	199 (s.y.)	ko‘p	+*	-	+	+	+	+
BEL	231 (b.t.)	ko‘p	-	-	+	+	+	+
	243 (s.)	ancha	-	-	+	-	+	+
MOL	244 (s.y.)	**	-	-	+	-	+	+
	244-1 (s.j.)	**	-	-	+	+	-	+
	249 (b.t.)	**	-	-	+	-	+	+
AZB	209 (b.t.)	ancha	-	-	+***	+	-	+
	213 (s.s.b.)	ancha	-	-	+***	+	+	+
KAZ	236 (b.t.)	ko‘p	+****	-	+	+	-	+
	244 (s.j.)	ko‘p	+	-	+	+	-	+
	245 (s.y.)	ko‘p	+	-	+***	+	+	+
KRG	241 (b.t.)	ancha	+	-	+	+	+	+
	242 (s.j.)	ko‘p	+	-	+	+	+	+
	243 (s.y.)	ko‘p	+	-	+	+	+	+
TJK	291 (b.t.)	ko‘p	+	+*****	+	-	+	+
	292 (s.y.)	ko‘p	+	+*****	+	-	+	+
	293 (s.j.)	ko‘p	+	+*****	+	+	-	+

TKM	283 (b.t.)	ko‘p	-	-	+	+	-	-
	284 (s.j.)	ko‘p	-	+******	+	+	-	+
	285 (s.y.)	ko‘p	-	+******	+	+	+	+

(s.) - soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash

(b.t.) - bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash.

(s.j.) - jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash.

(s.y.) - yuridik shaxslar tomonidan soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash.

(s.s.b.) - soliqlar, sug‘urta badallarini to‘lashdan bo‘yin tovlash.

** to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar bilan birga jarimalar ham nazarda tutilgan.*

*** o‘rtacha oylik ish haqi yoki shartli birlikda aniq miqdorlar belgilangan.*

**** jarima yetkazilgan zarar miqdorining bir necha baravarida qo‘llanadi.*

***** faqat moddaning birinchi qismidagi qilmish uchun qo‘llanadi.*

****** yetkazilgan zarar sud hukmi ijroga qaratilganidan keyin qoplansa, jazoning o‘talmay qolgan qismidan ozod qilinadi.*

******* faqat moddaning ikkinchi qismidagi qilmish uchun qo‘llanadi, birinchi qism sanksiyasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmagan.*

O‘zbekiston va ayrim xorijiy davlatlar misolida bojxona to‘lovlarini, soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyatining qiyosiy huquqiy tahlili.

Yuqoridagi davlatlar tajribasini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashni alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilash xorijiy qonunchilikda keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Bunda uchta asosiy tendensiya kuzatiladi.

Birinchidan, aksariyat davlatlarda bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashdan alohida huquqiy norma bilan tartibga solingan.

Ikkinchidan, jinoiy javobgarlikni belgilashda to‘lanmagan bojxona to‘lovlarining miqdori muhim mezon sifatida qo‘llanadi va javobgarlik miqdorga qarab differensiallashtiriladi.

Uchinchidan, ayrim davlatlarda yetkazilgan zararni, shu jumladan bojxona to‘lovlari, penya, foiz va jarimalarni ixtiyoriy ravishda qoplash shaxsni jinoiy javobgarlikdan yoki jazoning muayyan turidan ozod qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Mazkur tajriba O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda e’tiborga olinishi mumkin. Biroq xorijiy davlatlarda qo‘llanilayotgan mexanizmlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularning O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-huquqiy siyosati, bojxona qonunchiligi va amaldagi javobgarlik tizimiga mos jihatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtayi nazardan, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirishda, bir tomondan, davlatning fiskal manfaatlarini samarali himoya qilish, ikkinchi tomondan esa jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik o‘rtasidagi chegarani aniq belgilash hamda jinoiy jazoni qilmishga mutanosib qo‘llash prinsiplari ta’minlanishi lozim.

Yuqoridagi qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash va soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash alohida jinoyat tarkiblari sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasida esa soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, bojxona boji mazkur moddaning nomi va dispozitsiyasida bevosita aks ettirilmagan. Bu esa bojxona boji to‘lanmasligi bilan bog‘liq qilmishlarni mazkur norma asosida malakalash(kvalifikatsiya qilish)da muayyan huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shuningdek, 184-moddada “ancha miqdor”, “ko‘p miqdor” va “juda ko‘p miqdor” tushunchalarining bir vaqtda Jinoyat kodeksining umumiy belgilangan miqdor mezonlaridan farqli ravishda qo‘llanilishi huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqinlarga sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shu bois 184-moddaning nomi va dispozitsiyasida bojxona bojini bevosita nazarda tutish hamda jinoyat tarkibining miqdoriy chegaralarini aniq BHM ko‘rsatkichlari orqali ifodalash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari tahlili va xulosa.

Tadqiqot natijalari tahlili asosida quyidagi takliflarni ilgari suramiz.

Birinchidan, Jinoyat kodeksining 184-moddasi nomi va dispozitsiyasidagi “soliqlarni yoki yig‘imlarni” degan so‘zlardan oldin “bojxona bojini” degan so‘zlarni kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur o‘zgartirish bojxona boji bilan bog‘liq majburiy to‘lovlardan bo‘yin tovlash holatlarining jinoiy-huquqiy bahosini aniq belgilash hamda bojxona boji, soliq va yig‘imlarning huquqiy tabiatiga oid mavjud noaniqliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Jinoyat kodeksining 184-moddasi birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida qo‘llanilgan “ancha miqdorda”, “ko‘p miqdorda” hamda “juda ko‘p miqdorda” iboralarini tegishincha:

“bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda”;

“bazaviy hisoblash miqdorining olti yuz baravaridan ming baravarigacha miqdorda”;

“bazaviy hisoblash miqdorining ming baravari va undan ortiq miqdorda” - degan iboralar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo‘lim “Atamalarning huquqiy ma’nosi” qismida belgilangan “ancha miqdor”, “ko‘p miqdor” va “juda ko‘p miqdor”

tushunchalarining mazmuni bilan 184-moddaning o‘zida belgilangan miqdor mezonlari o‘rtasidagi huquqiy kolliziyani bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, 184-moddaning yakuniy qismida aynan mazkur jinoyat uchun “ancha miqdor”, “ko‘p miqdor” va “juda ko‘p miqdor” tushunchalariga alohida ta’rif berishga ehtiyoj qolmaydi. Shu sababli mazkur qismni modda matnidan chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati tushunchasi, sodir etilish usullari, qilmish uchun javobgarlikni tahlil qilish, bunday turdagi jinoyatlarni kengroq o‘rganishga, ushbu turdagi jinoyatlarni to‘g‘ri malakalashga hamda jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish orqali ularni o‘z vaqtida aniqlash va fosh qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan asosli takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sudenko V.Ye. Ugolovnoye pravo. Obshaya chast: leksii / V. Ye. Sudenko; pod red. N.A.Duxno. — M. : Yuridicheskiy institut MIITa, 2016. — 197 s. 32-B. (Sudenko V.E. Criminal law. General part: lectures / V.E.Sudenko; und. ed. N.A.Duxno. — M.: Law Institute MIIC, 2016. — 197 p. P-32) // https://www.miit.ru

2. “Bojxona huquqbuzarliklarining oldini olish, tergov qilish va ularni bartaraf etishda o‘zaro ma’muriy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi xalqaro Nayrobi Konvensiyasi. 09.06.1977-y. 7-B. (International Convention “On Mutual Administrative Assistance for the Prevention, Investigation and Repression of Customs Offences” Nairobi, 09.06.1977-y. P-7)// https://www.wcoomd.org

3. Bojxona ittifoqining Bojxona kodeksi 2009-yil 27-noyabr, 2-3-B. (Customs code of Customs Union, November 27, 2009, P-2-3.)// https://wipolex-res.

4. https://www.zks-law.ru/articles/customs

5. Nikiforova A.A. Dissertatsiya kandidat yuridicheskix nauk. Ugolovno-pravovoy mexanizm protivodeystviya prestupleniyam v sfere vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. Nijniy Novgorod 2017, s. 39-40-B. (Nikiforova A.A. Dissertation Candidate of Legal Sciences. The criminal-legal mechanism of countering crimes in the field of foreign economic activity. Nizhny Novgorod 2017, pp. 39-40.)

6. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Russian Federation)// https://continent-online.com

7. Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Belarus)//https://pravo.by

8. Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Moldov)//https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=390;-56

9. Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Azerbaijan)// https://continent-online.com

10. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Kazakhstan) https://online.zakon.kz

11. Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Kyrgyzistan)//https://continent-online.com/Document/?doc_id=36675065

12. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Tadjikistan)//https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325

13. Turkmaniston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Turkmenistan) // https://continent-online.com/Document/?doc_id=31295286